

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**XUDAYBERDIYEVA SADOQAT ABDIMANNONOVNA**

**O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARI VA BANKLARNING  
O'ZARO INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Xudayberdiyeva Sadoqat Abdimannonovna**

O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirish..... 3

**Худайбердиева Садокат Абдиманновна**

Совершенствование взаимной интеграции страховых компаний и банков в Узбекистане..... 31

**Khudoyberdieva Sadokat Abdimannonovna**

Improving the mutual integration of insurance companies and banks in Uzbekistan..... 59

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**XUDAYBERDIYEVA SADOQAT ABDIMANNONOVNA**

**O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPANIYALARI VA BANKLARNING  
O'ZARO INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan B2022.3.PhD/Iqt.2460 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rczyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kenjayev Ilhom G'iyozovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaydarov Nizomiddin Xamroyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Olimjonov Odil Olimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**  
**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti DSc.03/30.12.2019.1.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» 11 soat 14 dari majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (+99871) 234-53-34. e-mail: [kutubxona@tsue.uz](mailto:kutubxona@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 11 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «12», 11 dari 80 raqamli reestr bayonomasi)



*T.Z. Teshabayev*  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

*J.X. Ataniyazov*  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

*I.N. Qo'zliyev*  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon moliya bozorining rivojlanishi turli xil moliyaviy faoliyat, kapital va biznes jarayonlarini birlashtirish shaklidagi integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bozorda moliyaviy vositachilar o‘zaro integratsiyasining ustuvor yo‘nalishi banklar va sug‘urta kompaniyalarining o‘zaro integratsiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan iqtisodiy beqarorlik holatida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari hisoblangan banklar va sug‘urta kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiyotning barqarorligini oshirish hamda katta hajmdagi uzoq muddatli investitsion manbalarning hosil bo‘lishiga erishilmoqda. Chet el banklarining tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ular tomonidan olinayotgan foydaning 1/3 qismi sug‘urta mahsulotlarini realizatsiya qilish faoliyati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>1</sup>.

Jahon amaliyotida hayot sug‘urtasining o‘rtacha har uchinchi sug‘urta polisi va umumiy sug‘urtaning har yigirmanchi sug‘urta polislari banklar tomonidan berilgan sug‘urta polislariga to‘g‘ri keladi. Banklar tomonidan sug‘urta xizmatlarini taqdim etishning paydo bo‘lishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri kelib, ushbu xizmat o‘sha davrda dastlab Buyuk Britaniya tijorat banklarining bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan<sup>2</sup>. Bugungi kunda tijorat banklari bilan sug‘urta tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni ikki xususiyati bilan tavsiflash mumkin: o‘zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlar va o‘zaro raqobatni yuzaga keltiruvchi munosabatlar. Sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini korxona va tashkilotlar hamda aholining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

O‘zbekistonda barqaror va yuqori sur’atdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda sug‘urta kompaniyalar va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanib, ko‘p sondagi bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanuvchilarga bir vaqtning o‘zida bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi hamda banklarga sug‘urta tashkiloti nomidan sug‘urta shartnomalarini tuzish amaliyotiga ruxsat berildi<sup>3</sup>. “Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligining shakli, turlari, texnologiyalari, obyekt va subyektlari hamda integratsiya instrumentlarini birlashtirishga”<sup>4</sup> qaratilgan vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta’minlashda sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi hamkorlik

<sup>1</sup>Bancassurance: продукти, технологи та системи мотивации//Финансовый рынок Украины.–2007.–№11.–С. 9-10.

<sup>2</sup>Яцентюк О.Н.Особенности банковского страхования: мировой опыт и российские реалии/О.Н.Яцентюк//Страховое дело.–2006.–№2.–С.9-16.

<sup>3</sup>O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 5-noyabrda yangi taxrirda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida qonunning 7-moddasi

<sup>4</sup>O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 2-avgustdagi 4412-sonli “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining birinchi bo‘limi hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ning 21 va 30 bandlari

munosabatlarini zamonaviy va optimal tizimini innovation yondashuvlar asosida shakllantirish va sug‘urta xizmatlarining samaradorligini oshirish kabi masalalarning ilmiy tadqiq etilishini taqozo etadi. Bu esa mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbiligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustda PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlanishish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 6-oktyabrdagi PQ-387-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanishining kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi..

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlanishish, innovation iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi-olimlar G.Benoist, E.Berkovitch, M.Narayanan, J.Cummins, M.Bradley, A.Desai, E.Kim, C.Calomiris, J.Canals, G.Galati, R.Moessner, I.Walter, O.D.Averchenko, A.Penyuganova, A.Shkurenko larning<sup>5</sup>ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

---

<sup>5</sup>Benoist G. Bancassurance: The New Challenges / G. Benoist // The Geneva Papers on Risk and Insurance. – 2002. – Vol. 27, № 3. – P. 295–303., Berkovitch E., Narayanan M.P. Motives for Takeovers An Empirical Investigation. Journal of Financial and Quantitative Analysis. - № 3, September 1993. - P.34-42., Bradley M., Desai A., and Kim E. The rationale behind interfirm tender offers: Information or synergy? Journal of Financial Economics. – 1983.- №11(1-4). P. 183-206.,

Calomiris C.W. The Origins of Banking Panics: Models, Facts, and Policy Regulation [in R. Glenn Hubbard, ed., Financial Markets and Financial Crises]. – Chi-179 cago: University of Chicago Press for the National Bureau of Economic Research. – 2003. – 54 p., Canals J. Competitive Strategies in European Banking // Oxford University Press. – 2005. – P. 34., Galati G. Moessner R. Macroprudential policy – a literature review. Netherlands Bank DNB Working Papers. – 2010. – №267. - 38 p, Walter I. Universal Banking and Financial Architecture // The Quarterly Review of Economics and Finance. – 2012. – Vol. 52, № 2. – P. 114-122., Аверченко О.Д. Механизм интегратсии страховых компаний и банков в системе взаимодействия участников финансового рынка. //Финансы, денежное обращение и кредит. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова, 2016 №2 (86). Пенюгалова А.В., Шкurenко А.И. Интегратсия рвнка страхования и банковского сектора: современное состояние и перспективы развития // Банковское дело, 19 (451) – 2011.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan: S.G‘ulomov, H.Boyev, J.Boyeva, B.Ashrafxonov, M.Mirsadikov, R.Husanov, A.Yadgarov, X.Shennayev, M.Xodjaeva, M.Asqarova, T.Boymurotov, A.Nurullayev, Q.Qo‘ldoshev, I.Abduraxmonov, I.Kenjayev, G.Xaliquulova, F.Xasanov, R.Azimov, O.Yuldashev, N.Babayeva, Sh.Zakirxodjayeva, N.Mavrulova, D.Abduturapova I.Mavlonovalarning ilmiy ishlarida sug‘urta sohasining turli yo‘nalishlari va sug‘urta kompaniyalari va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirishning ba’zi bir yo‘nalishlari tadqiq qilingan<sup>6</sup>.

Ushbu mavzuda doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan, sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik masalasi alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmagan va tadqiq etilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi “Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda bajarilgan.

---

<sup>6</sup>S.G‘ulomov, H.Boev, J.Boeva Valyuta, kredit, moliya va sug‘urta muammolari Toshkent Mehnat 1998, Б.Ашрафханов, М.Мирсадиков Развитие страхового законодательства республики//Рынок, деньги и кредит.Т.: 2002 №11-12 30 ст., R.Husanov, A.Yadgarov Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta tizimi T.:Yangi asr avlod-2005,79 b., X.Shennayev O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Monografiya.—T.: iqtisod-moliya 2021-336 b., M.Xodjayeva Sug‘urta faoliyati buxgalteriya hisobi va auditining hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo‘llari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.:BMA-2001 130 b., M.Аскарова Развитие системы страхования в обеспечении экономического роста в условиях рыночных преобразований в Республике Узбекистан, автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н., Т.: Институт экономики АН РУз-2003-132ст., T.Boymurotov O‘zbekistonda sug‘urta faoliyativa uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi-2004-125 b., A.Nurullayev O‘zbekistonda fermer va dehqon xo‘jaliklarini sug‘urtalash masalalari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.:BMA, 2007, Q.Qo‘ldoshev Sug‘urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: BMA-2009 130 b., I.Abduraxmonov O‘zbekiston respublikasida javobgarlikni sug‘urtalashning amaliyotini takomillashtirish, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: BMA-2010 130 b., I.Kenjayev Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Т.: TMI, 2019, G.Xaliquulova Sug‘urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Т.: TMI, 2019-80b., F.Xasanov O‘zbekistonda kiber risklarni sug‘urtalash masalalari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T.:TMI-2021. 106 b., R.Azimov Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug‘urtalash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasuiya avtoreferati.—T.:TMI-2022., O.Yuldashev O‘zbekistonda hayot sug‘urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2022.281 b., N.Babayeva Sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,-T.:TMI-2023.218 b., Sh.Zakirxodjayeva Hayotni sug‘urta qilish sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2023.135 b., N.Mavrulova Umumiyl sug‘urta sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari.i.f.d.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya,T.:TMI-2023.283b., D.Abduturapova Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug‘urta munosabatolarini takomillashtirish. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati,T.:TDIU-2023.78 b., I.Mavlonova Sug‘urta-ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar himoyasi//Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2009. №10 Б.53-55.

**Tadqiqotning maqsadi** sug‘urta kompaniyalari va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirish qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** quyidagilardan iborat:

sug‘urta kompaniyalar va banklar o‘rtasidagi integratsion hamkorlik munosabatlari mexanizmi tushunchasiga aniqlik kiritish;

innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mamlakat sug‘urta kompaniyalar va tijorat banklari o‘rtasida o‘zaro aloqalarning amaldagi mexanizmlarini tahlil qilish va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

sug‘urta kompaniyalar va tijorat banklari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolarni amaliy o‘rgangan holda, ushbu muammolarni hal qilish hamda takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

hayot sug‘urtasi va boshqa umumiy sug‘urta turlari bo‘yicha maxsus kafolat fondini shakllantirish zarurligini asoslash;

sug‘urta kompaniyalar va banklar o‘rtasidagi integratsion hamkorlik munosabatlari bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish tizimini shakllantirishni zarurligini asoslash;

sug‘urta kompaniyalar va banklar o‘rtasidagi integratsion hamkorlik munosabatlarini takomillashtirish jarayonida qo‘sishimcha daromad topish maqsadida yangi sug‘urta mahsulotini ishlab chiqish;

sug‘urta kompaniyalar va banklar o‘rtasidagi integratsion hamkorlik munosabatlari modelini hamda uning samaradorligini aniqlash usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalar va banklarning o‘zaro integratsion hamkorlik munosabatlari belgilangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalar va banklarning o‘zaro integratsion hamkorlik munosabatlarida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligining shakli, turlari, texnologiyalari, obyekt va subyektlrai hamda integratsiya instrumentlarini birlashtirish taklif etilgan;

sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanishiga erishish hamda ko‘p sondagi bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanuvchilarga bir vaqtning o‘zida bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkonini yanatish maqsadida banklarga sug‘urta tashkiloti nomidan sug‘urta shartnomalarini tuzish amaliyotiga ruxsat berish taklif etilgan;

banklar va sug‘urta kompaniyalarining yuqori integratsiyalashgan bank-sug‘urta mahsulotini ishlab chiqish, xususan, hayot sug‘urta polisini ipoteka krediti olishda kafolat sifatida qo‘llash imkonini beruvchi yangi moliyaviy mahsulot ipoteka sug‘urta polisini amaliyotda qo‘llash taklif etilgan;

Oracle SOA Suite dasturiy kompleksini amaliyotda qo'llash orqali banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsion munosabatlar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish taklif etilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

integratsiya samaradorligining asosiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda va yuqori integratsiya samaradorligiga ega modelni tanlashga imkon beradigan banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsion hamkorlik samaradorligini baholovchi model ishlab chiqilgan;

bank va sug'urta mahsulotlari hajmini aniqlash imkonini beruvchi, mijozlar bilan munosabatlar tizimining samaradorligini aniqlash, sotish kanallari o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirish hamda ishtirokchilarning to'lovga qobilligini oshirish imkonini beruvchi sifat parametrlari ishlab chiqilgan;

banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsion hamkorlik munosabatlarining shakllari, uning samaradorligining sifat parametrlari ishlab chiqilgan;

banksug'urta xizmatlarini ishlab chiqish bosqichlari va ularning samaradorligini aniqlash me'zonlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, aniq me'yoriy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalari milliy agentligi, O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi, sug'urta tashkilotlari va banklarning davriy hisobot ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullari orqali tahlilga asoslanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'urta tashkilotlar va banklar o'rtasidagi integratsion hamkorlikni takomillashtirishga bag'ishlangan mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borilishida keng ko'lamda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyat shundan iboratki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan sug'urta kompaniyalari va banklarning o'zaro integratsion jarayonini takomillashtirishda hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Sug'urta ishi" va "Sug'urta menejmenti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari va banklarning o'zaro integratsiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

banklar va sug'urta kompaniyalari integratsion hamkorligining shakli, turlari, texnologiyalari, obyekt va subyektlari hamda integratsiya instrumentlarini birlashtirish taklifi (O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining 2024-yil 18-sentyabrdagi №71-sonli va ("Trust-Insurance" AJ sug'urta kompaniyasining 2024-yil 10-iyuldagagi №01/01-704-sod ma'lumotnomalari)) amaliyotda foydalanilgan. Natijada 2023-yilda tijorat banklari vositachiligidagi bank risklari bilan bog'liq sug'urta shartnomalari 2022-yilga

nisbatan 25 foizga oshdi, shu bilan birga, mazkur sug‘urta shartnomalarining zararlilik darajasi 15 foizga tushishiga erishilgan;

sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanishiga erishish hamda ko‘p sondagi bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanuvchilarga bir vaqtning o‘zida bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratish maqsadida banklarga sug‘urta tashkilotlari nomidan sug‘urta shartnomalarini tuzish amaliyotiga ruxsat berish taklifi (O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasining 2024-yil 18-sentabrdagi №71-son ma’lumotnomasi) amaliyotda foydalanilgan. Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston sug‘urta bozorida tuzilgan sug‘urta shartnomalar soni 2022-yilda 217802 taga va 2023-yilda 1181117 taga oshgan;

banklar va sug‘urta kompaniyalarining yuqori integratsiyalashgan bank-sug‘urta mahsulotini ishlab chiqish, xususan, hayot sug‘urta polisini ipoteka krediti olishda kafolat sifatida qo‘llash imkonini beruvchi yangi moliyaviy mahsulot ipoteka sug‘urta polisini amaliyotda qo‘llash taklifi (“Kafolat Hayot Insurance” AJ sug‘urta kompaniyasining 2024-yil 18-iyuldaggi №08-03/217-son ma’lumotnomasi) amaliyotda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yilda yangi moliyaviy gibridd mahsulot ipoteka sug‘urta polisini amaliyotda qo‘llash natijasida ushbu yilda “Kafolat Hayot Insurance” AJ sug‘urta kompaniyasining yillik foydasi 5 foizga oshgan.

Oracle SOA Suite dasturiy kompleksini amaliyotda qo‘llash orqali banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi integratsion munosabatlar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish taklifi (“Trust-Insurance” AJ sug‘urta kompaniyasining 2024-yil 10-iyuldaggi №01/01-704-sun ma’lumotnomasi) amaliyotda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Trust-Insurance” AJ sug‘urta kompaniyasi va “Ipotekabank” AJ tijorat banki o‘rtasidagi integratsion munosabatlar bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyatga aloqador bo‘lmagan xarajatlar 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 20 foizga kamaygan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 xalqaro va 3 ta respublika miqiyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tijorat banklari va sug‘urta tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarining nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro integratsion hamkorlikning mohiyati, banklar va sug‘urta kompaniyalari hamkorligi tizimida banksug‘urta xizmatlarining tasniflanishi hamda moliyaviy xizmatlar bozorlarining globallashuvi sharoitida banksug‘urta xizmatlari bo‘yicha xorij tajribasi keng tadqiq etilgan.

Moliya sohasini rivojlantirish bo‘yicha hozirgi zamon uchun xos yo‘nalishlari sifatida global iqtisodiyot salohiyatining o‘sishi va xalqaro moliyaviy vositachilar rolini ortishi, ular integratsion hamkorligining chuqurlashuvi va kengayishi hamda xalqaro moliya bozorlardagi faoliyatining universallashuvi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar ichida yanada sezilarli ko‘zga tashlanayotgan yo‘nalish banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi integratsion hamkorlik hisoblanadi. Uning darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo‘nalishi va darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi integratsiyalashgan o‘zaro hamkorlikning konseptual g‘oyasi XX asrning 90-yillariga kelib global xususiyatga ega bo‘ldi. Iqtisodiyot moliya sektori rivojlanishining muhim yo‘nalishi bo‘lgan banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsiyaviy hamkorligining yuzaga kelishiga quyidagilarni asosiy omil sifatida keltirish mumkin:

banklarning muqobili bo‘lgan boshqa vositachilar tomonidan lizing, iste’mol va ipoteka kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish hajmining o‘sishi;

Amerika va G‘arb davlatlari qurilish konsernlari va developerlik kompaniyalarining ko‘chmas mulk sotib olish uchun kredit taqdim etish borasida raqobatdoshlik bo‘yicha ustunliklarining o‘sishi;

ko‘pgina mamlakatlarda tijorat banklarining kredit faoliyatiga muqobil subyektlarning paydo bo‘lishi barobarida bank va sanoat sektori o‘rtasida kechadigan moliya-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi;

ko‘pgina g‘arb davlatlari va Shimoliy Amerikada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash natijasida xususiy nafaqa sug‘urtasi va hayot sug‘urtasining rivojlanishi;

bank faoliyatini tartibga solishning yangi va qattiqqo‘llik xususiyatiga ega bo‘lgan qoidalarining kiritilishi, xususan, kapital yetarliligi darajasini aniqlash

bo‘yicha tavsiyalarning ishlab chiqilishi bank biznesining daromadlilagini oshirishga bo‘lgan talabni kuchaytirdi<sup>7</sup>.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligi doirasida banksug‘urta deb nomlanuvchi shaklini alohida ko‘rsatish mumkin. “Banksug‘urta” (bancassurance) termini fransuzcha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, sug‘urta mahsulotlarini bank tizimlari orqali sotishni anglatadi va “banksug‘urta” deb ataladi. Ushbu terminning nemis tilidagi analogi – allfinanz, ispancha – bancoassurance, italyancha – bancari so‘zlariga mos keladi. Termin Fransiya bank muassasalarining tashabbusi bilan XX-asr 70-yillarining oxiri va 80-yillarining boshlarida amaliyotga kiritilgan. Ushbu davrlarda hayot sug‘urtasi mahsulotlari banklar tomonidan sotila boshlangan bo‘lsa, 90-yillarning oxirlariga kelib umumiyligi sug‘urta mahsulotlari ham banklar orqali sotila boshlandi. Shu bilan birga, 70-yillarning birinchi yarmida banklar o‘z sug‘urta kompaniyalarini tashkil etib boshlagan edi.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarining rivojlanish davriyligiga oid ilmiy-nazariy ishlarni tahlil qilish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bank va sug‘urta kompaniyasi integratsiyasining shakli sifatida, bank sug‘urta rivojlanishining to‘rtta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Birinchi bosqich ushbu bosqichda banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning integratsiyalashuvi jarayoni amalga oshgan bo‘lib, bu davr G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 1967-1985-yillarni o‘z ichiga olgan. Mazkur bosqichda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari banklari va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida rasmiy ravishda agentlik shartnomalari yoki banksug‘urta shartnomalari tuzilgan holda ular o‘rtasidagi hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 1985-yilda Angliya va Fransiya sug‘urta kompaniyalari tomonidan banklar bilan birinchi strategik al’yanslar tashkil etilgan bo‘lib, bunga misol sifatida Angliya sug‘urta kompaniyasi “Standard Life” Shotlandiya bankiga investitsiya kiritganligini yoki Fransiya sug‘urta kompaniyasi “GAN” “Credit Indastriel et Commercial” bankini sotib olganligini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, 1980-yilda Fransuz milliy banki de Paris Paribas o‘zining Natio Vie sug‘urta kompaniyasini tashkil etdi. Ushbu banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida yuz bergen integratsiya o‘zining ijobiyligi samarasini berdi va buning isbotini bugungi kunda Paribas Fransiyada yuqori nufuzga ega ekanligida ko‘rish mumkin. Mazkur bosqichda bank sug‘urta G‘arbiy Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida juda tezlik bilan rivojlandi: 1985-1999-yillarda Fransiyada banksug‘urtaning o‘sishi 7 baravarni tashkil etib, bu yillik 23 % ni tashkil etdi.

<sup>7</sup>Демченко В.Н. Bancassurance в России и за рубежом. Интеграция страховых компаний и банков в распространении страховых услуг / В.Н. Демченко, П.А.Гришин, А.А. Цыганов // Русский полис.— 2004. - №7.-136 с.

**Yevropa mamlakatlari va AQShda banksug‘urta konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari<sup>8</sup>**

| <b>Bosqichlar</b>   | <b>Xususiyatlari</b>   |
|---|--|
| Banksug‘urtaning paydo bo‘lish bosqichi (1967-1985-yillar)      | “Banksug‘urta” va “Umumiy moliya” konsepsiyalari yuzaga keldi (1967 yilda Angliyaning TSB banki birinchi marta TSB-Life sug‘urta mahsuloti sotuvini yo‘lga qo‘ydi); G‘arbiy Yevropaning moliya sektorida qo‘shilish va qo‘shib olish to‘lqini yuz berdi; banklar o‘zaro integratsiyalashuvning tashabbuskorlari sifatida hayot sug‘urtasi mahsulotlarini sotish bo‘yicha vositachilik vazifasini bajardi; 1985 yil – Angliya va Fransiyada birinchi banksug‘urta al‘yansi tashkil topdi. |
| Banksug‘urtaning shakllanish bosqichi (1986-1995-yillar)        | AQSh moliya sektorida qo‘shilish va qo‘shib olish jarayonlarining yuqori cho‘qqisi; G‘arbiy Yevropa mamlakatlariada banksug‘urta tezlik bilan rivojlandi va banklar jami foydasining 25 foizini ta’minladi; ikki tomonlama integratsiya yuz berdi va uning tashabbuskori sifatida faqat banklar emas, sug‘urta kompaniyalari ham ishtirok etdi.  |
| Banksug‘urtaning jadal rivojlanish bosqichi (1996-2007-yillar)  | Moliya bozorida moliyaviy konglomeratlar rolining oshishi; moliyaviy guruuhlar faoliyatini nazorat qilish bilan bog‘liq iuammolarga e’tiborning kuchayishi; iqtisodiyotning moliya sektori tarkibining transformatsiyasi, G‘arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiyada ushbu sektor konvergensiyasining yuz berishi; moliya sektorida qo‘shilish va qo‘shib olish operatsiyalari sonining ko‘payishi.   |
| Banksug‘urta konsentratsiyasining kuchayishi (2008-2015-yillar) | Bank va sug‘urta kapitali konsentratsiyasining kuchayishi; kapitallarning erkin harakatlanishi, moliyaviy oqimlarning transchegaraviy mobilligining shiddat bilan o‘sishi; moliyaviy birlashmalarning moliyaviy xolding, moliyaviy konglomeratlarga aylanishi va ular tomonidan integratsiyalashgan banksug‘urta xizmatlarining taqdim etilishi.   |

G‘arbiy Yevropa mamlakatlariada banksug‘urtaning yuqori o‘sish darajasi 1996-2007-yillarni o‘z ichiga oldi. Mazkur yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlari moliyaviy konglomeratlar rolining ortishi yuz berib, ushbu jarayonning yuqori darajasi banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi integratsiya bo‘ldi. Bunday holatda ushbu sohani ilmiy jihatdan o‘rganish va global darajada tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning o‘rni ortib bordi. 1993-1996-

<sup>8</sup>Аверченко О.Д. Зарубежный опыт банковстрахования в условиях глобализации финансовых рынков //Финансы и кредит 14(2016) 32-42.

yillarda banklar faoliyatini xalqaro darajada muvofiqlashtiruvchi xalqaro Bazel qo'mitasi qimmatli qog'ozlar bo'yicha xalqaro komissiya hamda sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda moliyaviy guruhlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan ilmiy tadqiqotni amalga oshirdi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishning natijasi sifatida, "asosiy faoliyati moliya bozorining uchta sektori, ya'ni bank, sug'urta va qimmatli qog'ozlar sohalaridan kamida ikkitasi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi" guruh moliyaviy konglomerat deya e'tirof etildi.

Ta'kidlash kerak, ushbu bosqichda moliyaviy soha subyektlari o'rtasida qo'shilish va qo'shib olish jarayonlari dunyoning alohida mintaqalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Masalan, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda (Avstraliya, Kanada, Yaponiya, Yangi Zelandiya, AQSh, G'arbiy Yevropa davlatlari) bunday kelishuvlar 2001-yildagi 459,5 mlrd.AQSh dollaridan 2007-yilga kelib 778,5 mlrd.AQSh dollarigacha oshdi. Ushbu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich 2001 yildagi 42,5 mlrd AQSh dollaridan 2007-yilga kelib 124,1 mlrd.AQSh dollariga yetganligini ko'rish mumkin.

Banksug'urta rivojlanishining oxirgi bosqichi bank va sug'urta kapitali konsentratsiyasi darajasining ortishi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda bank va sug'urta integratsiyasi doirasidagi banksug'urta konsepsiysi G'arbiy Yevropada o'zining yuqori darajasiga chiqdi. Yevropa ittifoqining sug'urta va qayta sug'urta yevropa federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2008-2014-yillar oralig'ida banksug'urta konsepsiysi Fransiya moliya bozorida yanada samarali amal qildi. Ushbu mamlakatda sug'urta mahsulotlarining bank orqali sotish 60 foizdan ortiqni tashkil etdi.

Ba'zi mamlakatlar va hududlarda banksug'urtaning rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

moliyaviy munosabatlар borasidagi uzoq yillik an'analarga asoslanish;

milliy qonunchiliklar orqali cheklovlar kiritish;

tashqi muhit xususiyatlarini hisobga olgan holda bank va sug'urta kompaniyalarining yangicha sharoitlarda hamkorlik qilishi.

Bank sug'urtaning hozirgi zamondagi taraqqiy etgan markazlaridan biri bo'lib, Fransiya, Germaniya, Angliya, Ispaniya, Italiya kabi G'arbiy yevropa mamlakatlari va Yaponiya, Singapur, Gonkong, Tailand, Malayziya singari Osiyoning alohida mamlakatlari hisoblanadi. 2008-yildan boshlab, banksug'urta modellari Janubiy Amerika, Sharqiy Osiyo, Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Janubiy Afrika mamlakatlariga sezilarli darajada yoyila bordi. Dunyo bo'ylab yoyilib borayotgan banksug'urta modellarini ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish, bu borada dunyo bo'yicha yagona umumqabul qilingan yondashuv mavjud emasligini ko'rsatdi. Banklar va sug'urta kompaniyalarining birgalikdagi harakatlari natijasida ishlab chiqilayotgan va eng keng tarqalgan kompleks xizmatlarini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. (2-jadvalga qarang).


**2-jadval**

**Kompleks xizmatlarni yaratish uchun birlashtirilgan bank va sug‘urta xizmatlari namunalari<sup>9</sup>**

| <b>Birlashtirilgan kompleks xizmat</b>                                 | <b>Birlashtirilgan xizmatning xususiyatlari</b>  | <b>Birlashtirilgan xizmatning turli mamlakatlardagi o‘ziga xos xususiyatlari</b>  |
|--|--|---|
| Hayot sug‘urtasi (kredit xatarlari sug‘urtasi va kredit berish)        | <p>Kredit sug‘urtasi mahsulotlari kredit oluvchining vafot etishi, mehnat qobiliyatini yo‘qotishi, ba’zi holatlarda ish joyini yo‘qotish holatlarda kredit to‘lovlarini amalga oshirish kafolatini beradi. Bunday xizmatlar o‘zida kredit risklari va ipoteka kreditlari, transport vositasini sotib olish uchun kredit va kredit kartalari bilan bog‘liq xatarlarni o‘zida birlashtirishi mumkin.</p> | <p>AQShda kredit sug‘urtasi eng ko‘p amalga oshiriladigan sug‘urta turi bo‘lsada, ko‘plab banklar bu imkoniyatdan foydalanmasdan ular ko‘proq sug‘urta kompaniyalari bilan uzoq muddatli aloqani o‘rnatishga e’tibor qaratadi. Ko‘plab evropa mamlakatlarida kredit sug‘urtasi banklar va sug‘urta kompaniyalari tomonidan birday qo‘llaniladi.</p> |
| Tibbiy jamg‘arma scheti (tibbiy sug‘urta va jamg‘arma schetini ochish) | <p>Tibbiy jamg‘arma schetlari aholiga tibbiy sug‘urta qoplamalarini olish bilan bir vaqtda turli soliq imtiyozlariga ham ega bo‘lish imkonini beradi. Jamg‘arma schetidagi mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha ko‘zda tutilgan imkoniyat tibbiy xarajatlar uchun to‘lovdan iborat bo‘lib, bu soliq imtiyozlari doirasida bo‘ladi.</p>   | <p>Hozirda dunyoda keng qo‘llanilayotgan mazkur xizmatlarni AQShda birinchi marotaba banklar taklif etgan. Ushbu xizmat aholisining qarish tendensiyasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchun va qariyalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun resurslar shakllantirish zarurligi bilan muhim hisoblanadi.</p>  |

Integratsiyalashgan moliyaviy xizmatlar eng yuqori darajadagi integratsiya va maslahat xizmatlari hisoblanadi. Bu mijozlar uchun ularning qo‘sishimcha qiymatini oshiradi. Moliya instituti yuridik yoki jismoniy shaxsning hayotiylik aylanmasi nuqtai nazaridan moslashtirilgan va raqobatbardosh xizmatlarni topishga harakat qiladi. Integratsiyalashgan moliyaviy xizmatlarning tipik kompleksi 1.2-rasmda keltirilgan.

<sup>9</sup>Muallif tomonidan tayyorlangan



### 1-rasm. Turli moliyaviy institutlar (banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqalar) integratsiyalashgan tizimidagi namunaviy komplek xizmatlar<sup>10</sup>

Banklar va sug'urta kompaniyalari hamda boshqa moliyaviy institutlar hamkorligi va ushbu hamkorliklarning natijasi sifatida ishlab chiqilgan kompleks xizmatlar hamda ularning qo'llanilishidan xulosa qilish mumkinki, banksug'urta xizmatlarining to'liq integratsiyasi marketing strategiyasining yondashuvlaridan biri bo'lib, uning maqsadi ko'p sondagi bank mijozlari bilan doimiy o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish orqali ularning bank ehtiyojlari bilan bir vaqtda sug'urta ehtiyojlarini ham qondirishdan iborat.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarni iqtisodiy va moliyaviy tahlili**» deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda banklar va sug'urta kompaniyalari o'zaro hamkorlik mexanizmining amal qilishi va tashkil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar, banklar va sug'urta kompaniyalari o'zaro hamkorligi mexanizmining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholash uslubiyoti tadqiq etilgan.


Banklar va sug'urta kompaniyalar o'rtasidagi integratsion hamkorlik O'zbekiston suug'urta bozori uchun nisbatan yangi faoliyat hisoblanadi. Afsuski, hozirga qadar mazkur hamkorlik bo'yicha mexanizmni shakllantirish bo'yicha umumiy yondashuv ishlab chiqilmagan.

Ilmiy nashrlarda “mexanizm” tushunchasiga turlicha yondashuvlar bo'lgan, buning asosiy sababi ushbu tushunchaning ko'p qirrali ekanligida, ya'ni ushbu

<sup>10</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tushuncha barcha sohalarda qo'llanilishida. “Mexanizm” grekcha mechane so‘zidan olingan bo‘lib, “mashina” yoki “qurol” ma’nosini bildiradi. Ammo bugungi kunda mexanizm tushunchasi jarayonlar va holatning ketma-ketligini anglatadi va bular har qanday hodisa va harakatlarga nisbatan qo'llaniladi. “Mexanizm” tushunchasi bilan “ichki qurilmalar”, “tizim” tushunchalarini ham bog‘lashadi. XX-asr 60-yillarining ikkinchi yarmida “mexanizm” termini ilmiy sohada Sharqiy Yevropada alohida rivojlanish darajasiga ega bo‘ldi. O’sha davrlarda olimlar iqtisodiy tizimning xo‘jalik mexanizmini muhokama qilayotgan davrlar edi. Bu bilan ular amal qilayotgan ma’lum harakatdagi kuchlar tizimiga alohida e’tibor qaratishdi.

Iqtisodiy nazariyada “mexanizm” tushunchasiga iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita tizimi sifatida, ayniqsa ularning qarama-qarshi tomonlari o‘rtasidagi munosabatlар hamda tizimosti va iqtisodiy tizim elementlari sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, “mexanizm” ma’lum tizimni tashkil etuvchi, tartibga soluvchi vositalarni birlashtirgan aniq va so‘nggi ko‘p elementlar va ularning o‘zaro aloqasi demakdir (2-rasm va 3-jadvalga qarang).



**2-rasm. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsiya mexanizmining turlari<sup>11</sup>**

<sup>11</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Iqtisodiy adabiyotlarda “mexanizm” termini bilan yana quyidagi tushunchalarni bog‘laydilar:

turli faoliyat turlarining tartiblarini belgilaydigan tizim yoki qurilma;

ma’lum tashkiliy tizim ishtirokchilarining o‘zaro aloqalarini reglamentlashga qaratilgan qoida, qonun va tartiblarning birlashmasi;

markaz tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlab chiqilgan tartib-qoidalarning kompleksligi<sup>12</sup>.

### 3-jadval

#### Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsiyasi turlari<sup>13</sup>

| Sug‘urta kompaniyasi va tijorat banki integratsiyasining quyi pog‘ona tizimlari |   |  |  |   |   |
|---|---|--|--|---|---|
| Integratsiya obyektlari   |   |  | Integratsiyani boshqarish instrumentlari   |   |   |
| Moliyaviy xizmatlar   | Integratsiya strategiyasi   | Biznes jarayonlar                              | Tashkiliy-iqtisodiy  | Me’yoriy-huquqiy  | Ijtimoiy  |
| Standart, kompleks, integratsiya-lashgan moliyaviy xizmatlar                    | Differensiatsiya, xarajatlarni kamaytirish, o‘sish strategiyalari | Moliyaviy xizmatlar ishlab chiqish yoki sotish | Tashkiliy tuzilma, integratsiya strategiyasi, integratsiya risklarini boshqarish | Integratsiyani tartibga solishdagi davlat siyosati; integratsiya bilan bog‘liq me’yoriy huquqiy talablar; iste’molchi huquqini himoya qilish. | Integratsiya borasida xodimlarga motivatsiya berish, mehnatga haq to‘lash tizimi, korporativ madaniyat, korporativ ijtimoiy javobgarlik |

O‘tkazilgan tadqiqotlar shunday xulosaga kelishimizga imkon berdiki, ilmiy adabiyotlarda mexanizmning ta’riflari ma’lum bir maqsadga erishishga qaratilgan tashkiliy va axborot aloqalari va jarayonlarini birlashtirgan quyi tizimlar to‘plami sifatida keng qo‘llaniladi. Tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalarining integratsion hamkorlik mexanizmi deganda, ushbu subyektlar o‘zlarining moliyaviy barqarorligi va to‘lovga qobilligini ta’minlash maqsadida asosiy faoliyatlaridan tashqari faoliyatni yo‘lga qo‘yish orqali qo‘sishimcha daromad topish, o‘z mijozlari bazasini kengaytirish va resurslardan o‘zaro foydalanishga sharoit yaratishga imkon beruvchi o‘zaro foydali hamkorlikning turlari, texnologiyalari, shakllari va integratsiya instrumentlari tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda, O‘zbekistonda banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligining faqat bir bosqichini keltirish mumkin, bu - sug‘urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan va amalda qo‘llanilayotgan sug‘urta mahsulotlarini (kredit qaytmasligidan sug‘urta, garovga qo‘yilgan mol-mulk sug‘urtasi, lizing operatsiyalari bilan bog‘liq risklar sug‘urtasi) o‘zaro kelishuv shartnomasini (agentlik bitimi) tuzgan holda sotishni tashkil qilish. Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu faoliyat 2019-yil 5-noyabrdagi

<sup>12</sup>Dierick F.The supervision of mixed financial services groups in Europe//Occasional paper series.–2004.-№20.-60 p.

<sup>13</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatining “Banklar uchun ta’qiqlangan yoki cheklangan faoliyat” deb nomlangan 7-moddasi asosida yo‘lga qo‘yilgan. Unga ko‘ra, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi: “sug‘urta tashkiloti bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug‘urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga” deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunchilik hujjatiga asosan deyarli barcha ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

#### 4-jadval

#### O‘zbekistonda bank risklari bilan bog‘liq sug‘urta shartnomalari eng ko‘p tuzilgan uchta klass bo‘yicha ma’lumotlar<sup>14</sup>

| № | Sug‘urta turlari<br>(klasslar)                                      | Yillar         |                |                  |                  |                  |
|---|---|----------------|----------------|------------------|------------------|------------------|
|   |   | 2019           | 2020           | 2021             | 2022             | 2023             |
|   | <b>Jami tuzilgan sug‘urta shartnomalari (dona)</b>                  | <b>1148688</b> | <b>1473851</b> | <b>3 678 042</b> | <b>3 555 547</b> | <b>2 564 542</b> |
| 1 | 1-klass. Baxtsiz hodisalardan ehtiyyot shart sug‘urta qilish (dona) | 621 515        | 721 575        | 1 821 905        | 1 297 158        | 1 194 155        |
| 2 | 14-klass—Kreditlarni sug‘urta qilish (dona)                         | 410 130        | 547 233        | 710 235          | 892 246          | 990 144          |
| 3 | 3-klass – Yer usti transport vositalarini sug‘urta qilish (dona)    | 117043         | 205 043        | 219 031          | 281 345          | 380 243          |

Umumiy sug‘urta tarmog‘ida ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha 2021-yilda jami 3 678 042 ta sug‘urta shartnomasi tuzilgan bo‘lib, jadvalda keltirilgan uchta klassga tegishli sug‘urta shartnomalari jami shartnomalarning 75 foizini tashkil etgan. Bunda 14-klass bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari faqat bank risklariga taalluqli bo‘lib, ushbu klass bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari jami shartnomalarning 19 foizini tashkil etgan. 3-klass bo‘yicha tuzilgan shartnomalarning asosiy qismi bank risklariga tegishli sug‘urta shartnomalari bo‘lib, ularning hissasi mazkur yilda 6 foizni tashkil etgan. 2022-yilda tuzilgan jami shartnomalar 3 555 547 ta bo‘lib, keltirilgan uchta klassga tegishli sug‘urta shartnomalari 69 foizni tashkil etgan. Bunda kreditlarni sug‘urtalash klassiga tegishli sug‘urta shartnomalari o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sib, 25 foizni tashkil etgan. 3-klass shartnomalari hajmi ham o‘sib, 7,9 foizni tashkil etgan. Keltirilgan tahlil natijalardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, banklar o‘z operatsion risklarini tobora ko‘proq sug‘urtalamoqda va ikki subyekt o‘rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda.

<sup>14</sup>Imda.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, banklar va sug'urta kompaniyalarining integratsion hamkorligiga quyidagi tashqi va ichki xarakterdagi omillar ta'sir qilishi mumkin (5-jadvalga qarang).

## 5-jadval

### Banklar va sug'urta kompaniyalarining integratsion hamkorligi mexanizmlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar<sup>15</sup>

| Tashqi omillar  | Ichki omillar                                     |
|---|---|
| 1. Qonunchilik va soliq normalari   | 1. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi              |
| 2. Bank va sug'urta bozorlarining rivojlanganlik darajasi   | 2. Ichki informatsion texnologiyalar va tizimlar  |
| 3. Sotish muqobil kanallarining o'rni   | 3. Moliyaviy mahsulotlarning murakkablik darajasi |
| 4. Sug'urta tashkilotlari va tijorat banklari integratsiyaviy hamkorligining dunyo miqyosidagi rivojlanish tendensiyalari | 4. Moliyaviy mahsulotlarni sotish kanallari       |

Tashqi omillar birinchi navbatda bank va nobank muassasalar ustidan davlatning tartibga soluvchi siyosati bilan bog'liq nazorati avvalo tashqi omillarga tegishlidir.

Shuningdek bank sug'urta mexanizmiga davlat tomonidan tartibga solishning ta'siri masalasiga misol tariqasida 1999 yilda AQSh Kongressi tomonidan Gramm-Leach-Bliley Act qonunini keltirish mumkin. Ushbu qonunning asosiy maqsadi banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va boshqa nobank moliya muassasalarining o'zaro hamkorligi uchun moliya bozorida prudensial asoslarni tatbiq qilishdan iborat<sup>16</sup>.

Ammo keyingi vaqtarda banksug'urta vakillari yangi murakkab xizmatlarni taklif eta boshlashdi, bular sifatida sug'urtalanuvchini uzoq muddatli parvarishlash xarajatlarining sug'urta ta'minoti va unit-linked mahsulotlari. Unit-linked mahsuloti hayot sug'urtasi polisi bo'lib, bunda sug'urta summasining kattaligi sug'urta shartnomasi bo'yicha investitsiyaga yo'naltirilayotgan sug'urta mukofotidan shakllanadigan aktiv qiymati bilan bog'liq. Sug'urta mukofoti ikki qismga ajratiladi: birinchi qism hayot sug'urtasi polisi bo'yicha kelajakdag'i to'lov larga mo'ljallangan matematik zahirani shakllantirishga yo'naltiriladi, ikkinchi qism esa sug'urtalanuvchining tanloviga ko'ra turli sohalarga investitsiya qilinadi.

Boshqa mintaqalarda ham banksug'urtani banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi samarali hamkorlik shakli sifatida e'tirof etish mumkin. 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasida samarali hamkorlik Braziliyada (hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlarining 55 % ni qamrab olgan), Malayziya (45 %) va Avstraliyada (43 %) yuqori darajada amalga oshib kelmoqda.

<sup>15</sup>Manba: muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>16</sup>Gramm-Leach-Bliley Act (1999). Public Law 106-102 106th Congress [Electronic resource]. – URL: <https://www.gpo.gov/fdsys/pkg/PLAW-106publ102/pdf/PLAW-106publ102.pdf>.


## 6-jadval

### Amerika, Osiyo va Avstraliyada sug‘urta mahsulotlarini tarqatish kanallarida banksug‘urtaning hissasi<sup>17</sup>

| Mamlakatlar    | Risklar sug‘urtasi |          |           |                 | Hayot sug‘urtasi |          |           |                 |
|----------------|--------------------|----------|-----------|-----------------|------------------|----------|-----------|-----------------|
|                | Bank sug‘urta      | Agentlar | Brokerlar | Boshqa kanallar | Bank sug‘urta    | Agentlar | Brokerlar | Boshqa kanallar |
| AQSh           | 2                  | 40       | 55        | 3               | 15               | 67       | 10        | 8               |
| Kanada         | -                  | 18       | 74        | 8               | 1                | 60       | 34        | 5               |
| Braziliya      | 13                 | 60       | 10        | 17              | 55               | 15       | 25        | 5               |
| Meksika        | 10                 | 25       | 50        | 15              | 10               | 70       | 15        | 5               |
| Chili          | 19                 | 65       | 6         | 10              | 13               | 64       | 10        | 13              |
| Yaponiya       | -                  | 92       | 1         | 7               | 2                | 96       | 1         | 1               |
| Janubiy Koreya | 4                  | 50       | 1         | 45              | 8                | 70       | 2         | 20              |
| Xitoy          | -                  | 45       | 2         | 53              | 20               | 70       | 3         | 7               |
| Tayvan         | -                  | 62       | 30        | 8               | 33               | 12       | 6         | 49              |
| Malayziya      | 10                 | 40       | 23        | 27              | 45               | 49       | 2         | 4               |
| Avstraliya     | -                  | 21       | 74        | 5               | 43               | 45       | 5         | 7               |

Janubiy Yevropadan farqli ravishda, Braziliya, Malayziya, Meksika va Chili kabi mamlakatlar risk sug‘urtasi bo‘yicha banklar va sug‘urta kompaniyalari hamkorligi borasida dunyo bo‘yicha etakchi hisoblanadi.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligining samarali tarzda barqaror amal qilishi va rivojlanishiga erishishda ushbu faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning qay darajada yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Davlatning ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratishiga sabab ikkala subyekt tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim o‘rin tutishidadir. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligini tartibga solishning zarurligi, bir tomondan, kredit va investitsion resurslarni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida strategik ahamiyatga ega ekanligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, moliya tizimining barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq.



### 3-rasm. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yondashuvlari va modellari<sup>18</sup>

Amalga oshirilgan tadqiqot banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligini davlat tomonidan tartibga solishning ikki yondashuvini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: konsolidatsiyalashgan va sektorlarga ajratish (3-rasmga qarang).

<sup>17</sup> Analyse de la situation de la bancassurance dans le monde // Focus SCOR Vie. 2005 asosida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Dunyo amaliyotida moliyaviy xizmatlar bozorlarini tartibga soluvchi organ sifatida kamida uchta moliyaviy bozor segmentlari bank, sug‘urta va qimmatli qog‘ozlar bozorlarini tartibga solishni ko‘zda tutuvchi tashkilot tushuniladi. Sektorial yondashuv o‘z o‘rnida moliya xizmatlari bozorlarini alohida segmentlar bo‘yicha tartibga soluvchi davlat tashkilotini ko‘zda tutadi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha konsolidatsiyalashgan davlat tizimining motivi va argumenti: moliyaviy guruhlar ustidan birlashuv asosida nazoratni amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni yaratish, ayniqsa moliyaviy sektor universallashgan va integratsiyalashgan moliyaviy xizmatlar tashkil etilgan holatda; mazkur taqdim etilgan vakolatlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan xarajatlarni kamaytirish (ayniqsa bu kichik davlatlar uchun muhim); moliya institatlarning nobank tashkilotlar ustidan nazorat va tartibga solishning samaradorligini ta’minalash; doimiy risklarni kamaytirish; moliyaviy bozor subyektlarining nohalol faoliyati riskining kamayishi. Shu bilan bir qatorda muhim bir holatni keltirib o‘tish zarur: krizislar natijasida qilingan xulosalar va ba’zi mamlakatlarda to‘plangan megatartibga soluvchining amal qilish tajribasi dunyo miqyosida integratsiyalashgan nazorat modellarida markaziy banklar rolini oshirishning zarurligini tushunib yetildi<sup>19</sup>.

## 7-jadval

### Banklar va sug‘urta kompaniyalari hamkorligini davlat tomonidan konsolidatsiyalashgan yondashuv asosida tartibga solishning afzallik va kamchiliklari<sup>20</sup>

| Konsolidatsiyalashgan yondashuvning afzalliklari   | Konsolidatsiyalashgan yondashuvning kamchiliklari  |
|--|--|
| 1.Yagona nazorat organi funksiyalarining takrorlanishini kamaytiradi   | 1.Moliyaviy xizmatlar bozorini tartibga soluvchi organ faoliyati funksiyalari aniq belgilanmagan holatda uning tartibga soluvchi va nazorat vakolatlari muvofiqligi buziladi   |
| 2.Informatsion resurslar almashinuvitez amalga oshadi  | 2. Tashkiliy xususiyatga ega holatlarni o‘zgartirmagan holatda bir nechta nazorat organlarini birlashtirish sinergiya samaradorligini cheklab qo‘yadi  |
| 3.Ichki tashkiliy jarayonlarning yuqori samaradorligi  | 3. Moliyaviy xizmatlar bozorini tartibga soluvchi organlar ichki tarkibiy strukturasining moslashmasligi va byurokratiyasi yuzaga kelish ehtimolligi   |
| 4.Raqobat siyosatida ko‘proq neytrallikning ta’milanishi   | 4. Siyosiy kuchlarning integratsion jarayonga ta’sirining yuzaga kelish ehtimolligi  |
| 5.Moliyaviy tartibga soluvchining personalni boshqarish bo‘yicha yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishi natijasida faoliyat samaradorligining oshishi | 5. Moliyaviy xizmatlar bozorini tartibga soluvchi organ funksiyalari samaradorligini pasaytirish maqsadida ma’lum kuchlar tomonidan moliyaviy sektorni nazorat va tartibga solish borasidagi me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish yoki yangilash amalga oshirilishi mumkin<br>6. Sektorial nazorat organini tugatish paytida yuqori malakali kadrlarni yo‘qotish ehtimolligi |

<sup>19</sup>Хандруев А. Направление мегарегулятор. [Электронный ресурс]. URL:<http://ecpol.ru/index.php/2012-04-05-13-45-47/2012-04-05-13-46-26/348-napravlenie-megaregulyator>

<sup>20</sup>Quintyn M. The Fear of Freedom: Politicians and the Independence and Account-ability of Financial Sector Supervisors M.Quintyn, S.Ramirez, M.W.Taylor.–IMF Working Paper WP/07/25.– 2007 asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ikki moliyaviy subyekt o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro integratsiyaviy hamkorlikdagi tarkibiy o‘zgarishlar, mavjud risk xususiyatlarining o‘zgarishi va shu bilan birga zamonaviy risklarning paydo bo‘lishi ushbu hamkorlikni tartibga solishning konseptual prinsiplarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu hamkorlikning o‘sishi nazorat funksiyalarining moliya bozorini tartibga soluvchi integratsiyalashgan organ megatartibga soluvchida konsentratsiyalashuvi tendensiyasi yuz bermoqda. Tartibga solishning bunday modelida tartibga solish funksiyalarining uchta moliyaviy vositachilar kategoriylarida birlashuvi yuz beradi: banklar, sug‘urta va investitsiya kompaniyalari.

Dunyo tajribasini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkin, moliyaviy megatartibgasoluvchilarni tashkil qilish zarurati va ularning samarali faoliyat ko‘rsatishiga ikkita o‘zaro bog‘liq tendensiya moliyaviy sektor tarkibining murakkablashuvi va uning mahsulotlari va xizmatlarining universallashuvi ta’sir ko‘rsatadi va bu oxir oqibatda moliyaviy risklar xususiyatining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, tarkibiy tuzilmaning murakkablashuvi va mahsulotlarning ma’lum qatlamlar uchun xosligidan universallashuv xususiyatiga o‘tishi moliya bozorida parallel ravishda amalga oshayotgan bo‘lsada, ba’zi davrlarda ushbu masalalar turli mamlakatlar tartibga soluvchi tashkilotlari uchun turlicha tarzda namoyon bo‘ldi. Masalan, Yaponiya, Germaniya, Avstriya va Shvesiyada tartibga soluvchilar moliyaviy va bank guruhlari muammolari bilan to‘qnash kelishgan.

Dissertatsiyaning **«O‘zbekiston banklari va sug‘urta kompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish»** deb nomlanib, uchinchi bobida banklar va sug‘urta kompaniyalar o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari hamda banklar va sug‘urta kompaniyalar o‘zaro hamkorlik mexanizmlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari va me’zonlari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligini samarali shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlashning asosi bo‘lib, har bir ishtirokchidagi egallangan raqobat borasidagi yutuqlar, integratsiyaning o‘zaro foydali jihatlarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish mavjud mehnat resurslari, informatsion, intellektual va moliyaviy resurslar hisoblanadi. Asosiy e’tibor distributsiya infratuzilmasiga, integratsiya jarayonlarini yurituvchi va moliyaviy xizmatlarni tarqatuvchi kuch sifatida moliyaviy mahsulotlarning xususiyatlariga qaratilishi kerak.

Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi jarayonida samarasiz xarajatlar ham yuzaga keladi. Bunday samarasiz xarajatlarni kamaytirish va hamkorlikning samaradorligini oshirishga erishish uchun, biz ushbu hamkorlik jarayonida qo‘llash uchun Oracle SOA Suite dasturiy kompleksini moslashtirishni taklif etamiz. Ushbu dastur vositasida banklar va sug‘urta kompaniyalarining informatsion-dasturiy tizimlariga quyidagi komponentlarni qo‘shishni taklif etamiz: integratsiyalashuvning biznes-jarayonlarini raqamlashtirish; hisob-kitoblarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xatolarni minimallashtirishni ta’minlovchi dastur ishlab chiqish; kengaytirilgan mijozlar bazasini shakllantirish; hisob yuritish va hisobotlar tuzish jarayonlarini boshqarishni tashkil qilish. Har bir

komponent banklar va sug‘urta kompaniyalar faoliyati bilan bog‘liq ma’lum ish va xizmat turlarini amalga oshirishni ta’minlaydi.

Oracle SOA Suite – bu integratsiyalashayotgan tuzilmalar uchun xizmatga yo‘naltirilgan arxitekturani (SOA) tashkil qilish, joylashtirish va operativ tarzda ishga tushirish uchun mo‘ljallangan kompleks dasturiy paket hisoblanadi. Paket tarkibiga kiruvchi komponentlar uchun bir qancha umumiy funksiyalar, shu bilan birga umumiy instrumentlar, yagona joylashtirish modeli va boshqaruvi, metama’lumotlarning yagona boshqaruvi va xavfsizlik tizimlari ko‘zda tutilgan.

Integratsiyaning standart metodlari va texnologiyalaridan farqli ravishda, SOA arxitekturasida amalga oshirilgan loyihalarda turli ko‘rinishdagi o‘zgarishlar kam uchraydi. SOA asosidagi EAI (Enterprise Application Integration) texnologiyalaridan foydalanganda tashkilotlar dasturiy ta’minotga xizmat qilishga ajratilgan mablag‘larni 70 foizgacha iqtisod qilishlari hamda xizmat ko‘rsatish siklini bir necha oydan bir necha haftagacha qisqartirishi mumkin. Biz tomonimizdan adaptatsiyalangan dasturiy kompleks quyidagilarni taklif etadi: mavjud tizimlar va ilovalar bilan yuqori darajada mos kelish; integratsiyalashgan platforma; integratsiyalashgan biznesni operativ boshqaruvchanlik; banklar va sug‘urta kompaniyalar bo‘limlari ishining sinxronizatsiyasi.

## 8-jadval

### Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligida qo‘llaniladigan dasturiy kompleks komponentlari<sup>21</sup>

| Banklar va sug‘urta kompaniyalar, ular tomonidan tashkil etilgan filial va vakolatxonalar |   |  |  |  |   |                                       |
|---|---|--|--|--|---|---------------------------------------|
| Banklar va sug‘urta kompaniyalar hamkorligida ishlab chiqilgan sug‘urta mahsulotlari      |   |  |  |  |   |                                       |
| Dasturiy kompleks komponentlari   |   |  |  |  |   |                                       |
| Umumiy sug‘urta mahsulotlari  | Hayot sug‘urtasi tarmog‘idagi jamg‘arib boriladigan sug‘urta mahsulotlari | Hayot sug‘urtasida an‘anaviy sug‘urta mahsulotlari | Kreditlash bilan bog‘liq bo‘lмагan boshqa sug‘urta mahsulot-lari | Qarz oluvchining hayotini sug‘urtalash | Kreditlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa sug‘urta mahsulotlari | Standart umumiy sug‘urta mahsulotlari |
| Mijozlar bo‘yicha kompleks ma’lumotlar bazasi. Big Data texnologiyasini joriy etish       | Sug‘urta polislari va bank shartnomalari ma’muriyatichiligi. BlockChain   |  | Moliyaviy mahsulotlarning shakllanishi                           |  | Tahliliy hisobotlar. Moliyaviy model                          |                                       |
| Sug‘urta zahiralarini tashkil etish   | Sug‘urta va bank shartnomalariga xizmat ko‘rsatish                        |  | Komission taqdirlash bilan bog‘liq hisoblar                      |  | Foydalanuvchilar ish vaqtin e’tiborga olish                   |                                       |

Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsiyasida qo‘llaniladigan dasturiy kompleksning asosiy komponentlari quyidagi jadvalda keltirilgan (8-jadvalga qarang).

Moslashtirilgan mazkur dasturiy majmua quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

<sup>21</sup>Muallif tomonidan tayyorlangan

integratsiyalashishda yuzaga keladigan biznes-jarayonlarni raqamlashtirish (sug‘urta va bank mahsulotlarini ishlab chiqish va sotish; mijozlar bilan tuzilgan shartnomalarga xizmat ko‘rsatish; vositachilarga to‘lanadigan komission rag‘batlantirishlar hisobini yuritish; sug‘urta zahiralarini shakllantirish va hisobini yuritish; mijozlarning umumiy ma’lumotlar ba’zasini yuritish; sug‘urta polislarini boshqarish va hisobini yuritish);

moliyaviy xarajatlarning optimalligini oshirish orqali ular hajmini kamaytirish, xarajatlar hisobini yuritishda yuzaga keladigan xatoliklarning kamayishiga erishish, moliyaviy mahsulotni aks ettiruvchi hujjatlarning shakllanishi va bosmadan chiqarilishi;

mijozlar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar ba’zasining shakllanishi va xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maksimal darajada mukammalligining ta’minlanishi;

banklar va sug‘urta kompaniyalari operatsion faoliyat jarayonlarini kuzatib borish, ularning o‘zaro integratsiyasi samaradorligini baholash bo‘yicha tahliliy hisobotlarni shakllantirish.

Banksug‘urta integratsion hamkorligini baholash ko‘rsatkichlarini uchta guruhga ajratish zarur:

1. Banksug‘urta integratsion hamkorligining dinamikasini baholash ko‘rsatkichlari.

2. Bank faoliyatini banksug‘urta integratsion hamkorligi kontekstida baholash ko‘rsatkichlari.

3. Sug‘urta kompaniyasi faoliyatini banksug‘urta integratsion hamkorligi kontekstida baholash ko‘rsatkichlari.

Banksug‘urta integratsion hamkorligining dinamikasini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni taklif etamiz.

Banksug‘urta integratsion hamkorligi kesimida to‘lovlar va xarajatlar ko‘rsatkichlari guruhi. Ushbu ko‘rsatkichlar moliyaviy xizmatlarni bank kanali orqali realizatsiya qilinganda ketgan xarajatlar hajmini sug‘urta faoliyatiga qilingan xarajatlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Akvizitsion xarajatlar sug‘urta kompaniyasining yangi sug‘urta shartnomalarini tuzish va mavjudlarini prolongatsiya qilish (anderryting xarajatlari, sug‘urta mahsulotlari harakati bo‘yicha marketing xarajatlari, sotishga jalb qilingan personalni o‘qitish, bonuslar, xodimlar oylik maoshi), hamda bank muassasasiga komission to‘lovlardan tashkil topadi. Sug‘urta kompaniyasini boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarga boshqaruv xodimlarining oylik maoshlari va ma’muriy-xo‘jalik xarajatlari (masalan, sug‘urta kompaniyasi va bank ma’lumotlar bazalarini o‘zaro integratsiyalash xarajatlari) kiradi.

To‘lovlar va xarajatlar darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar guruhi banksug‘urta integratsiyasining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu guruh tarkibida sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan sug‘urta zahiralarining shakllantirilishi va xarajatining o‘zaro balanslashuvini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar mayjud (9-jadvalga qarang).

## 9-jadval

### Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi kontekstida bank faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari<sup>22</sup>

| Ko‘rsatkichlar   | Formulalar   | Ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni  | Optimal darajasi, %* | Ko‘rsatkich og‘irligi, %** |
|--|--|--|----------------------|----------------------------|
| Sug‘urta mahsulotlarini bank kanali orqali sotish bo‘yicha to‘lovlar darajasi (BKtd) | $SXsdtx$ $BKtd = \frac{SXsdtx}{ISMx}$ $SXsdtx - \text{sug‘urta da‘volarini tartibga solish xarajatlari}$ $ISMx - \text{ishlab topilgan sug‘urta mukofoti}$ | Bank kanali orqali kelib tushgan sug‘urta mukofotlarini sug‘urta qoplamlari bilan taqqoslash imkonini beradi   | 20-40                | 30                         |
| Bank kanali bo‘yicha ish yuritish xarajatlari darajasi ko‘rsatkichi (BKx)            | $AX+BX$ $BKx = \frac{AX+BX}{ISMx}$ $AX - \text{akvizitsion xarajatlar;}$ $BX - \text{boshqaruv xarajatlari}$   | Ish yuritish xarajatlarining (sug‘urta shartnomalarini tuzish, boshqaruv xarajatlari) bank kanali orqali olingan daromadlar summasidagi ulushini aniqlaydi | 15-30                | 30                         |

Sug‘urta mahsulotlarini bank kanali orqali sotishning foydalilik darajasi ko‘rsatkichi. Joriy yilda sug‘urta mahsulotlarini bank kanali orqali sotishning foydalilik darajasini aniqlash uchun akvizitsion xarajatlar nisbatini ularning turlari va sug‘urta mukofotlari bo‘yicha tahlil qilinayotgan davr uchun yillik mukofot ekvivalenti yordamida (YME) ko‘rib chiqish taklif etilmoqda:

$$AX_i$$

$$F_{bs} = \frac{AX_i}{ISM_{yangi} + 10\%SM_{bv}}$$

Bunda,  $F_{bs}$  – banksug‘urta operatsiyalarining daromadliligi;

$AX_i$  – sug‘urta kompaniyasining i turi bo‘yicha akvizitsion xarajatlari;

$SM_{yangi}$  – tadqiqot davri uchun yangi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;

$SM_{bv}$  – tadqiqot davrida sug‘urtalanuvchi tomonidan bir martada to‘langan sug‘urta mukofotlari.

Bank tizimidagi tashkiliy birlikka to‘g‘ri kelgan sug‘urta mukofotlari hajmining o‘rtacha darajasi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$SM_{bme}$$

$$SM_b = \frac{SM_{bme}}{BV_{bs}}$$

$SM_b$  – bank tizimining tashkiliy birligi to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofotlarining o‘rtacha hajmi;

<sup>22</sup>Muallif tomonidan tayyorlangan.

SM<sub>yme</sub> – yillik mukofot ekvivalenti bo‘yicha hisoblangan sug‘urta mukofotlari;

SM<sub>yme</sub> – sug‘urta mahsulotlarini sotishga jalb qilingan bank vakolatxonalarini.

Keltirilgan ko‘rsatkichlarni hisoblash maqsadida bank va sug‘urta kompaniyasi mijozlarining ma’lumotlar bazasi tizimini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Agar bank bir nechta sug‘urta kompaniyalari yoki bitta sug‘urta kompanisi bilan hamkorlik qiladigan bo‘lsa, integratsion hamkorlikning rivojlanish dinamikasini baholashning muhim elementi bo‘lib, keltirilgan ko‘rsatkichlarning moliyaviy muassasalar, mijozlar guruhlari, sotilgan mahsulotlar kesimidagi hisobi hisoblanadi.

#### 10-jadval

#### Banklar va sug‘urta kompaniyalar hamkorlik integratsiyasi jarayonida sug‘urta kompaniyalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari<sup>23</sup>

| Baholash ko‘rsatkichlari   | Hisoblashda qo‘llaniladigan formula  | Ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni   | Ko‘rsatkichning optimal darajasi, % | Ko‘rsatkich vazni, % |
|--|--|---|-------------------------------------|----------------------|
| Sug‘urta zahiralari (SZ) va sug‘urta mukofotlari (SM) ko‘rsatkichlar nisbati (K) | $K_1 = \frac{SZ}{SM}$  | Sug‘urta zahiralari (SZ) qiymatining sug‘urta mukofotlariga (SM) nisbati ko‘rinishida mablag‘lar yetarligini ko‘rsatadi   | 50-60                               | 30                   |
| To‘lovlar va xarajatlar darajasi ko‘rsatkichi                                    | $K_2 = \frac{SQ \cdot X}{SM}$<br>SQ-sug‘urta qoplamlari;<br>X-sug‘urta ishini yuritish xarajatlar; | Sug‘urta operatsiyalarining balanslashganligi ko‘rsatkichi sug‘urta faoliyati xarajatlari umumiy summasini sug‘urta faoliyatidan daromad hajmi bilan taqposlash imkonini beradi     | 30-90                               | 20                   |
| Xususiy kapitalning (XK) sug‘urta zahiralari (SZ) ga nisbati ko‘rsatkichi        | $K_3 = \frac{XK}{SZ}$  | Moliyaviy barqarorlik indikatori majburiyatlardan holi mablag‘larni sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlar bilan taqposlash uchun qo‘llaniladi                                  | 30-80                               | 15                   |
| Xususiy kapital (XK) rentabelligi  | $K_4 = \frac{SFs}{XK}$<br>SFs-sug‘urta faoliyatining sof foydasi                                   | Rentabellik ko‘rsatkichlari tarkibiga kiradi, kiritilgan mablag‘lar nuqtai-nazaridan sug‘urta kompaniyasi faoliyatining samaradorligini ko‘rsatadi                                  | 5-30                                | 15                   |
| Xususiy kapitalning (XK) balans passividagi ulushi                               | $K_5 = \frac{XK}{passiv}$  | Ish faolligi indikatori sifatida xizmat qiladi. Xususiy kapitalning oshishi ijorbiy tendensiya hisoblanadi, amma uning ko‘p ortib ketishi sh faolligining pasayganligini ko‘rsatadi | 20-40                               | 10                   |
| To‘lovlar darajasi   | $K_6 = \frac{XK}{passiv}$  | Sug‘urta operatsiyalarining balanslashganlik ko‘rsatkichlari tarkibiga kiradi, sug‘urta qoplamlari to‘loving bir tekis amalga oshishini aniqlash imkonini beradi                    | 15-55                               | 10                   |

<sup>23</sup>Muallif tomonidan tayyorlangan

Integratsiya borasida bank tomonidan qaror qabul qilishda, bizning fikrimizcha, sug‘urta kompaniyasi amal qilishining asosiy indikatorlariga asoslanish muhim hisoblanadi. O‘zaro hamkorlik shartnomasini tuzish uchun bank tomonidan sug‘urta kompaniyasini tanlash yoki integratsiya jarayonida sug‘urta kompaniyasi faoliyatidagi xatoliklarni oldindan diagnostika qilish, integratsiya kontekstida sug‘urta kompaniyasining faoliyat indikatori sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘lgan ko‘rsatkichlar (moliyaviy barqarorlik, rentabellik, ish faollligi) asosida amalga oshirilishi mumkin (10-jadvalga qarang).

Ushbu jadvalda banklar bilan sug‘urta kompaniyalarining hamkorlik integratsiyasi jarayonida sug‘urta kompaniyalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar baholash ko‘rsatkichlar, hisoblashda qo‘llaniladigan formula, ko‘rsatkichning iqtisodiy mazmuni, ko‘rsatkichning optimal darajasi hamda ko‘rsatkich vazni to‘g‘risida ma’lumotlar bat afsil tasvirlab berilgan.

## XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi deganda ikkala subyektni bosh vazifalarini samarali amalga oshirish va xizmatlar hajmini kengaytirish maqsadida o‘z imkoniyatlarini bir vaqtning o‘zida ikki vazifani amalga oshirish masalasini tushunish kerak.

2. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligini amalga oshish va kengayishining obyektiv asosi bo‘lib, ikki subyekt faoliyatiga tashqi muhit ta’siri bilan bog‘liq makroiqtisodiy holat va ushbu muassasalar faoliyatini amalga oshirish tizimi bilan bog‘liq mikroiqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

3. Banklar va sug‘urta kompaniyalar hamkorligining muhim elementi, ushbu hamkorlikning optimal shaklini va ushbu shakldan foydalanishning qulay usul va turlarini tanlash masalasi hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot natijasida banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligining asosiy shakli hisoblangan banksug‘urta shaklini amalga oshirish yuqori samarali bo‘lishi asoslandi hamda mijozlarga ixtiyoriy asosida sotiladigan kompleks xususiyatga ega bo‘lgan banksug‘urta mahsulotlaridan sinergetik samara olish maqsadida banklar va sug‘urta kompaniyalar kooperatsiyasini moliyaviy operatsion-texnologik kooperatsiyaga aylantirish zarur degan xulosa shakllantirildi.

4. Turli ko‘rinishdagi tashkiliy va mulk shakliga ega bo‘lgan banklar va sug‘urta kompaniyalar o‘zaro integratsiyalashuvining asosiy shakli banksug‘urta hisoblanadi va ushbu shaklini qo‘llashdan maqsad, banklar va sug‘urta kompaniyalarning moliyaviy, operatsion-texnologik, tashkiliy-boshqaruv yo‘nalishlarida ixtiyorilik asosida mijozlarga kompleks xususiyatga ega bo‘lgan banksug‘urta mahsulotlarini sotish orqali sinergetik samaraga erishishdan iborat.

5. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorlik mexanizmi O‘zbekiston iqtisodiyotining moliya sektori uchun nisbatan yangi jarayon

bo‘lganligi munosabati bilan ushbu hamkorlik mexanizmini shakllantirishga bo‘lgan umumiy yondashuv hali yaratilmagan. Banklar va sug‘urta kompaniyalarning integratsion hamkorligi doirasida ushbu subyektlarning o‘zaro foydali hamkorligini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq integratsiya turlarini, texnologiyalarini, shakllari, obyekt va subyektlar hamda instrumentlarini tushunish, ushbu hamkorlikning natijasi qo‘shimcha daromad olish, mijozlar bazasini kengaytirish, xarajatlar va risklarni kamaytirish hamda o‘zaro resurslardan foydalanish imkoniyatining yaratilishini tushunish taklif etildi.

6. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorlik mexanizmi integratsiyani boshqarishning ma’lum instrumentlari asosida (integratsiyani davlat tomonidan tartibga solish, informatsion-tahliliy ta’minot, korporativ boshqaruv, integratsiya risklarini boshqarish) shakllantirilishi, subyekt va obyekt darajasida banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorlik samaradorligini oshirishni ta’minlashga qaratilishi kerak.

7. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi instrumentlari subyekt darajasida quyidagilarni o‘z ichiga oladi: prudensial nazorat, moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish, sug‘urta bozori tomonidan integratsiya risklarni boshqarish hamda likvidlik riski, operatsion va kredit risklari. Obyekt darajasida banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi instrumentlariga quyidagilarni kiritish zarur: moliyaviy xizmatlar assortimentini kengaytirish, ularni sotish kanallarini takomillashtirish, yangi mijoz segmentlarini topish, ushbu xizmatlarni ko‘rsatayotganlar uchun mehnatga haq to‘lash va motivatsiya tizimini ishlab chiqish.

8. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorlik mexanizmi, ushbu subyektlarning o‘zaro hamkorligi asosiga qurilishi va integratsiya obyektlaridan (biznes strategiyalari, biznes-jarayonlar, kapital va moliyaviy xizmatlar) foydalangan holda amal qilishi kerak. Chunki sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi turli integratsiya shakllari uchun o‘ziga xos integratsiya risklari ta’sir ko‘rsatib boradi.

9. O‘zbekistonda banksug‘urtani rivojlantirishning asosiy muammolarini aniqlash va tizimlashtirish imkonini berdi. Mijozlar tomonidan bank xizmatlarini sotib olish paytida ularni sug‘urta xizmatlarini ham sotib olishga majburlash; banklarning yuqori komission taqdirlashlari; banklar va sug‘urta kompaniyalari texnologiyalarining o‘zaro mos kelmasligi; banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘zaro hamkorligi bilan bog‘liq risklarning yuqori darajasi.

10. O‘zbekistonda aniqlangan banksug‘urta muammolarini yechishga qaratilgan yo‘nalshlar sifatida quyidagilar taklif etildi: banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi fonida ushbu subyektlar uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish; akkreditatsiyadan o‘tish bilan boliq talablarning barcha ishtirokchilar uchun yagona bo‘lgan aniq talablarini ishlab chiqish, bunda asosiy mo‘ljal sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari va ular faoliyatining qonunchilik talablariga mos kelishi hisoblanadi; yuqori integratsiyalashgan banksug‘urta xizmatlarini ishlab chiqish; mijozlarni segmentlarga ajratish; xizmatlarni guruahlarga ajratish; risklarni boshqarishning ichki tizimini ishlab

chiqish, bank va sug‘urta sektori ustidan prudensial nazorat choralarini qo‘llash; sotuv kanali topishning natijasi sifatida moliyaviy supermarketlarni tashkil qilish; vaqt chaqiriqlariga mos keladigan, original moliyaviy mahsulotlarni yaratish va shu asosda umuman bank mahsulotlariga bo‘lgan yangi qarashlarni shakllantirish, moliyaviy madaniyatning yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga imkonni yaratish.

11. Fuqarolarning (sug‘urtalanuvchilarning) huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun, O‘zbekiston sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta tarmog‘ida tuziladigan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasini tashkil etish taklif etilgan. Jamg‘arma apparati xarajatlarini optimallashtirish maqsadida mazkur fondni amaldagi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi negizida tashkil etish taklif etilmoqda. Mazkur jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘lanadigan badallar va ushbu mablag‘larni investitsiya qilishdan olingan daromadlar hisobidan amalga oshiriladi.

12. Banklar va sug‘urta kompaniyalari integratsion hamkorligining shakllari bank va sug‘urta mahsulotlari sotuvi hajmining rentabelligini, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar tizimi samaradorligining o‘sishini hamda solish kanallari o‘rtasidagi konfliktlarni minimallashtirish va integratsiya ishtirokchilari uchun to‘lovga qobillik normativini optimallashtirish darajalarini aniqlash va ular samaradorligining miqdoriy parametrlari belgilash shakllari ishlab chiqilgan.

13. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligining samaradorligini baholash modeli ishlab chiqilgan, bo‘lib, ushbu model integratsiya samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlarini hisobga oladi va integratsion daromadlarni maksimallashtirish, xarajatlar va risklarni minimallashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan modelni tanlash imkonini beradi.

14. Quyidagi yo‘nalishlar banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari deb e’tirof etildi: integratsion hamkorlik bilan bog‘liq risklarni samarali boshqarish va yangi mijozlar topish; sug‘urta xizmatlari turlarini ko‘paytirish; moliyaviy va sug‘urta mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish va sotishning yangi vositalarini qo‘llash; banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligining samarali va uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish.

15. Banklar va sug‘urta kompaniyalar integratsion hamkorligi samaradorligini ta‘minlashning me’zonlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: moliyaviy va sug‘urtaviy hamda hamkorlikdagi mahsulotlarni ishlab chiqish va sotish bilan bog‘liq tadbirlar samaradorligini oshirish; mijozlar va potensial mijozlar bilan ishlash tizimi xarajatlarini kamaytirgan holda, tizim samaradorligini oshirish; sotish kanallari o‘rtasida yuzaga keladigan nomutanosibliklar va konfliktli holatlarni yo‘qotish; integratsion hamkorlikning daromadlilagini oshirish va ushbu hamkorlik bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish va to‘lovga qobillik normativlarining optimalligini ta‘minlash.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019. I.17.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  
**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

---

**ХУДАЙБЕРДИЕВА САДОҚАТ АБДИМАННОНОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗАИМНОЙ ИНТЕГРАЦИИ СТРАХОВЫХ  
КОМПАНИЙ И БАНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**08.00.07 – «Финансы, денежное обращение и кредит»**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**город Ташкент – 2025 год**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2022.3.PhD/Iqt.2460 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и Информационно - образовательном портале "ZiyoNET" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Кенжасев Илхом Гиёзович  
доктор экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Хайдаров Низомиддин Хамроевич  
доктор экономических наук, профессор  
Олимжонов Одил Олимович  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** Высшая школа бизнеса и предпринимательства при  
Кабинете Министров Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 14<sup>00</sup> в час. 08 11 2025 г. на заседании Научного совета DSc 03/30.12.2019.1.17.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100000, г. Ташкент, улица Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34; факс:(99871) 234-46-26; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (внесен в список под №1416. Адрес: 100000, г. Ташкент, улица Амира Темура, 60А. Тел.: (+99871) 234-53-34; факс:(99871) 234-46-26; mail: [kutubxona@tsue.uz](mailto:kutubxona@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «12» 11 2025 года.  
(регистр протокола рассылки №80 от «12» 11 2025 года)

  
Т.З.Тешабаев  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

  
Ж.Х.Атаниязов  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

  
И.Н.Кузнеев  
Председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
доктор экономических наук,  
профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой финансового рынка характеризуется усилением интеграционных процессов в виде объединения различных видов финансовой деятельности, капитала и бизнес-процессов. Приоритетным направлением взаимной интеграции финансовых посредников на рынке является взаимная интеграция банков и страховых компаний. В условиях экономической нестабильности, которая сегодня происходит во всем мире, за счет усиления сотрудничества между банками и страховыми компаниями, являющимися ведущими отраслями экономики, достигается повышение устойчивости экономики и формирование больших объемов долгосрочных инвестиционных ресурсов. Опыт зарубежных банков показывает, что 1/3 получаемой ими прибыли приходится на вклад деятельности по реализации страховых продуктов<sup>1</sup>.

В мировой в среднем каждый третий страховой полис страхования жизни и каждый двадцатый страховой полис общего страхования соответствуют страховым полисам, выданным банками. Возникновение предоставления страховых услуг банками относится к середине 1980-х годов, когда подобная услуга впервые начала осуществляться подразделениями коммерческих банков Великобритании<sup>2</sup>. На сегодняшний день взаимоотношения коммерческих банков со страховыми организациями можно охарактеризовать двумя особенностями: отношениями, основанными на сотрудничестве, и отношениями, порождающими взаимную конкуренцию. Основу взаимоотношений страховых компаний и банков составляют экономические отношения, связанные с привлечением и использованием свободных денежных средств предприятий и организаций, а также населения.

В Узбекистане уделяется особое внимание совершенствованию интеграции между страховыми компаниями и банками с целью обеспечения устойчивого и высоких темпов социально-экономического развития. В результате дальнейшего развития сотрудничества между страховыми компаниями и банками большое количество пользователей банковских и страховых услуг получили доступ к банковским и страховым услугам одновременно, а банкам была разрешена практика заключения договоров страхования от имени страховой организации<sup>3</sup>. “Были определены задачи, направленные на объединение форм, видов, технологий, объектов и

---

<sup>1</sup> Bancassurance: продукти, технологи та системи мотивации//Фінансовий ринок України.–2007.–№11.–С. 9-10.

<sup>2</sup> Яцентюк О.Н. Особенности банковского страхования: мировой опыт и российские реалии/О.Н. Яцентюк// Страховое дело.–2006.–№2.–С.9-16.

<sup>3</sup> Статья 7 Закона Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности», принятого в новой редакции **5 ноября 2019 года**.

<sup>4</sup> Постановление Республики Узбекистан от 2 августа 2019 года № 4412 “О мерах по реформированию и обеспечению ускоренного развития страхового рынка Республики Узбекистан”, а также раздел I данного постановления и пункты 21 и 30 утверждённой им «Дорожной карты».

субъектов интеграционного сотрудничества банков и страховых компаний, а также инструментов интеграции”<sup>4</sup>. Обеспечение выполнения этих задач требует научного исследования таких вопросов, как формирование современной и оптимальной системы сотрудничества между страховыми компаниями и банками на основе инновационных подходов, а также повышение эффективности страховых услуг. Это, в свою очередь определяет актуальность темы данной диссертационной работы.

